



O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG‘I

2024-yil “14”-iyun

257-I/CH-son

“Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish” nomli ilmiy loyihani bajarish ishlarini rivojlantirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son qarori 5-ilovasi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni yaratish va joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi”ga kiritilgan loyihalar ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son qarori 5-ilovasi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni yaratish va joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi” ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorning 5-ilovasiga kiritilgan “Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish” nomli ilmiy loyihani bajarish ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida jamoatchilik asosida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasini mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sulaymonov Jasur Baxtiyorovich, Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent Pulatov Sherdor Nematjonovich hamda Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sherboboyev Muxriddinjon Azimmurod o‘g‘li jalb qilinsin.

3. Loyiha rahbari (A.Shopulatov)ga ilmiy loyihani bajaruvchi ishchi guruh tarkibiga jamoatchilik asosida jalb qilingan professor-o‘qituvchilarni loyihani bajari shilariga faol jalb qilish, vazifalarini belgilab berish hamda bajargan ishlari bo‘yicha hisobotlarni o‘z vaqtida olish vazifalari topshirilsin.

4. Universitet devonxonasi mudirasi (K.Kurbanova)ga mazkur buyruqning mazmunini universitet jamoasiga yetkazish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosining nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (B.B.Musayev) zimmasiga yuklatilsin.

ASOS: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-414-son qarori, Loyiha ilmiy rahbari bildirgisi.

Rektor v.v.b.



B.Musayev

**“Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini
tashkil etish” nomli ilmiy loyiha natijalari yuzasidan**

MA”LUMOTNOMA

Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish nomli ilmiy loyihani bajarish ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o‘g‘li tomonidan tayyorlangan “Ta’lim jarayonida harakatli o‘yinlarning o‘rni” nomli maqola Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari nomli Respublika to‘plamida chop etildi hamda loyiha doirasida o‘tkazilgan davra suhbatlarida metodik manba sifatida foydalanildi.

Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o‘g‘li Aholini ommaviy sog‘lomlashtirishning innovatsion sport klasterini tashkil etish o‘yicha o‘tkazilgan barcha maktab va Oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan konfrensiya va davra suhbatlarida o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok egan.

Loyiha rahbari



A.Shopulatov